

Tahrir hay'ati:

Abdulla Oripov, Jo'raYo'ldoshev, Yo'ldosh Saidjonov, Gulandon
Alimova, Karim Normatov, Nazira Jo'rayeva, Jabbor Razzoqov

Muharrir: Hikoyat MAHMUDOVA

© Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,
2000 y.

AN OR

(O'tmishdan)

Uylar to'la non, och-nahorim, bolam.
Ariqlar to'la suv, tashnai zorim, bolam.

Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yak-tagining yengi zulfmga ilinib tirsakkacha yirtildi. Uning shashti qaytdi. Jo'xori tuyayotgan xotini uning qo'lidagi tugunchani ko'rib, kelisopni keling ustiga qo'ya chop- di. Keli lapanglab ag'anadi, chala tuyulgan jo'xori yerga to'kildi.

Turobjon, tugunchani orqasiga bekitib, tegishdi:

— Akajon, degin!

— Akajon! Jo-on aka!..

— Nima berasan?

— Umrimning yarmini beraman!..

Turobjon tugunchani berdi. Xotini shu yerning o'zida, eshik oldida o'tirib tugunchani ochdi-da, birdan bo'shashib ketdi va sekin boshini ko'tarib eriga qaradi. O'z qilmishiga gerdayib turgan Turobjon uning ko'zini jiqqa yosh ko'rib:

— Nima ekanini bildingmi? — dedi. — Asalarining uyasi! Turgan-bitgani asal! Mana, mana, siqsang asal oqadi. Bunisi oq mo'm, harom emas — shimisa ham bo'ladi, chaynasa ham bo'iadi.

Xotin yengini tishlab bir nuqtaga qaraganicha qoldi.

— Yo, qudratingdan, ishonmaydi-ya! — dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab, — mana, chaynab ko'r! Ko'rgin, bo'lmasa innaykeyin degin...

Turobjon qizardi. U bir zamon betob o'rtog'ini yo'qlab eltgan tarvuzini, bemaza chiqqan bo'lsa kerak, sigirning oxurida ko'rib shunday xijolat bo'lgan edi.

Hovli yuzida aylanib yurgan oqsoq mushuk to'kilgan jo'xorini iskab ko'rdi, ma'qul bo'lmadi shekilli, Turobjonga qarab shikoyatomuz "mau" dedi.

— Tur, jo'xoringga qara! Uni ko'r, mushuk tegdi.

Xotin turayotib baralla yig'lab yubordi.

— Bu yer yutkur qanday balo ekan!.. Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong'i bo'lsam-chi!

Turobjon to'ppisini boshidan oldi va qoqmoqchi bo'lganida ko'zi yirtiq yengiga tushdi, yuragi achidi: endi uch-to'rt suv yuvilgan yangigina yaktak edi!

— Axir, boshqorong'i bo'l, evida bo'l-da! — dedi to'ppisini qoqmasdan boshiga kiyib, — anor, anor... Bir qadoq anor falon pul bo'lsa! Saharimardondan suv tashib, o'tin yorib, o't yoqib bir oyda oladiganim o'n sakkiz tanga pul. Akam bo'lmasa, ukam bo'lmasa...

Er-xotin tek qolishdi. Xotin jo'xorini tuyib bo'ldi, uni kelidan tog'orachaga solayotib do'ng'illadi:

— Havasga anor yeydi deysiz shekilli...

— Bilaman... Axir, nima qilay? Xo'jayinimni o'ldirib pulini olaymi, o'zimni garov qo'yaymi? G'alatimisan o'zing?

Xotin ovqatga unnadi, erining "boshqorong'i bo'l, evida bo'l-da" degani unga juda alam qildi, xo'rliги keldi, o'pkasi to'ldi.

Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go'jaga qatiq ham rang kirgizolmadi. Turobjon ikki kosa ichdi, xotin esa hanuz bir kosani yarimlatolmas edi. Uning imillashini ko'rib Turobjonning ko'ziga negadir oqsoq mushuk ko'rindi. Mushuk, yirtilgan yengini esiga tushir-

di, avzoyi buzildi. Uriing avzoyidan "essiz jo'xori, qa- tiq, o'tin" degan ma'noni anglab xotin, ko'ngli tort- masligiga qaramasdan, kosani bo'shatdi, ammo darhol torn orqasiga o'tib, ko'zlari qizargan, chakka tomirlari chiqqan holda qaytdi.

— Hali tug'ilmagan bolani yer yutkur deding-a, — dedi Turobjon borgan sayin tutoqishib.

Xotin indamay dasturxonni yig'ishtirib oldi, qozon- ga suv quyayotib, eshitar- eshitilmas dedi:

— O'sha asalning puliga anor ham berar edi.

— Berar edi! — dedi Turobjon zaharxanda qilib, — anor olmay asal oldim!

— Albatta berar edi! Albatta anor olmay, asal olgansiz!

Mana shunday vaqtlaida til qotib og'izda aylanmay qola-

di, mabodo aylansa, mushtning xizmatini qiladi.

—Ajab qildim, — dedi Turobjon titrab, — jigarlaring ezilib ketsin!

Bu so'z unga qanday ta'sir qilganini faqat boshqorong'i xotingina biladi. Turobjon bu gapni aytdi-yu, xotinining ahvolini ko'rib achchig'idan tushdi; agar izzat-nafs qo'ysa hozir borib uning boshini silar va "qo'y, xafa bo'lma. jahl ustida aytdim", der edi.

—Kishining yuragini qon qilib yuborasan! — dedi anchadan keyin, — nainki men asal olsam! Asal otliqqa yo'q, hali biz piyoda-ku! Xo'jayinga bir oshnasi sovg'a qilib kelgan ekan, bildirmasdan... o'zidan so'rab ozrog'ini oldim... O'zi berdi. Tansiq narsa, xursand bo lar- mikansan, debman. Yo tansiq emasmi? Umringda necha marta asal yegansan? O'zim umrimda bir marta yegan- man: Shokirxo'ja qandolatchi asal qiyom qildirayotganda qozoniga ammamning jo'jasi tushib ketgandi, shu 10'jani yalaganman...

Turobjonning bu so'zlari xotinining qulog'iga nota- yin bir g'o'ldirash bo'lib kirar edi. Uning Turobjon bilan uy qilganiga uch yil bo'lib kelayotir, nazarida, bu odam shu uch yildan beri g'o'ldirab kelgan, hozirgisi shuning davomiday edi. Ittifoqo, bu kun, nima bo'ldi- yu, uch so'zni ravshanroq aytdi, "jigarlaring ezilib ketsin", dedi. Olamda uning suyangani eri, birdan-bir orzusi — anor edi, birdaniga har ikkisi ham yo'qqa chiqdi.

Xotin uyga kirib ketdi. Anchadan keyin darchadan xira shu'la tushdi. Turobjon ham kirdi. Xotin darcha yoni- da, bir tizzasiga boshini qo'ygan, qoramtir kulrang osmonga qarab o'tirar edi. Turobjon tikka turib qoldi. Tokchadagi beshinchi chirog' pixillab yonar, uning atro- fida katta bir parvona aylanar edi. Turobjon ham darcha yoniga o'tirdi. Shiftning qayeridir "qirs" etdi, qayerda- dir kaltakesak chirqilladi. Turobjonning qulog'i jing'illadi. U ham osmonga — xira yulduzlarga qaradi. Masjiddagi kekxa baqaterak orqasidan ko'tarilgan qizg'ish o't, ko'kda olovli iz qoldirib, juda yuqoriladi va go'yo osmonga uril- ganday chilparchin bo'lib, "po'p" etdi.

—Mushak, — dedi Turobjon. — Mullajon qozining bog'ida. Mullajon qozi beshik to'yi qilgan.

Xotin indamadi.

—Shahardan to'ralar ham chiqqan, — dedi Turobjon yana.

Xotin yana indamadi. U, Mullajon qozining bog'ini ko'rgan emas, ammo ta'rifmi eshitgan. Bu bog'ni ko'z oldiga keltirib ko'rdi: bog' emas, anorzor... Anor daraxt- larida anor shig'il, choynakday-choynakday bo'lib osi- lib yotipti.

— Bitta mushak uch miri, - dedi Turobjon, — yuzta mushak otilsa... bittangadan yuz tanga. Bir miridan kam — yetmish besh tanga bo'ladi.

Er-xotin uzoq jim qolishdi. Turobjon og'zini katta ochib ham esnadi, ham uf tortdi.

—Ma, buni tik, — dedi u yaktagini yechib, — ma!

Xotin yaktakni olib yoniga qo'ydi, aftidan, hozir tikmoqchi emas edi.

—Bo'l, — dedi Turobjon, birpasdan keyin, — ol... Senga aytyapmanL

—Ha, munchaL Turtmasdan gapira bering... Tikib qo'yarman, muncha qistov...

Turobjonning tepa sochi tikka bo'ldi.

—Hay, sening dimog'-firog'ing kimga! Xo'sh, nima deysan?

—Men sizga bir narsa deyapmanmi? Tikib qo'yarman.

—Har narsaga ro'zg'or achchiq bo'la bersa... qiyin- roq bo'lar, — dedi Turobjon yaktagini kiyayotib, — kambag'alchilik...

—Kambag'alchilik o'lsin!

Xotin bu gapni shikoyat tarzida aytdi, ammo Turobjon buni ta'na deb tushundi.

—Nima, men sen! olganimda kambag'alligimni yashir-ganmidim? Erkaboyga o'xshab chimildiqqa birovning to'ni, kavush-mahsisini kiyib kirganmidim? Bunday ar- moning bo'lsa hali ham serpulroq odamga teg.

— Ikki ta anor uchun xotiningizni serpul odamga oshir- gani uyalang!

Bu gap Turobjonning hamiyatiga tegdi. "Jigarlaring ezilib ketsin" degani xotiniga qancha alam qilgan bo'lsa, bu gap Turobjonga shuncha alam qildi.

— E, hoy, anor olib bermadimmi? — dedi Turobjon mayin tovush bilan, ammo bu mayin tovushdan qo'rqquliq edi, — sira anor olib kelmadimmi?

— Yo'q! — dedi xotin birdan boshini burib.

Turobjonning boshi g'ovlab, ko'zi tindi.

— O'tgan bozor kuni yegan anoringni o'ynashing olib kelganmidi?!

— O'ynashim olib kelgan edi!

Turobjon bilolmay qoldi: xotinning yelkasiga tepib, so'ngra o'rnidan turdimi, yo turib keyin tepdimi: o'zini obrezning oldida ko'rdi. Xotin, rangi oppoq, ko'zlarini katta-katta ochib unga vahimali nazar bilan qarar va boshini chayqab pichirlar edi:

— Qo'ying... Qo'ying-

Turobjon chiqib ketdi. Birpasdan keyin ko'cha eshigi ochilib yopildi.

Xotin uzoq yig'ladi, eriga qattiq gapirganiga pushay- mon bo'ldi, o'zini qarg'adi, o'lim tiladi; yig'idan tolib tashqariga chiqdi. Qorong'i, uzoq-yaqinda itlar hurar edi. Ko'cha eshigini ochib u yoq-bu yoqqa qaradi —jim- jit. Guzar tomonda faqat bitta chiroq miltillar edi. Sa- movarlar yotgan. Qaytib uyga kirdi.

Tom orqasida xo'roz qanot qoqib qichqirdi. Ko'cha eshigi ochildi. Xotin to burilib qaraguncha Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib keldi. U, tugunni uyning o'rtasiga tashladi. Bir choyshap anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi. Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko'rib xotin qo'rqib ketdi — bu qadar oqargan! Turobjon o'tirib peshonasini ushladi. Xotini yugurib oldiga keldi va yelkasiga qo'lini qo'ydi.

— Qayoqqa bordingiz? — dedi entikib, — nima qildingiz?

' Turobjon javob bermadi. Uning vujudi titrar edi.

O'G'RI

(O'tmishdan)

Otning o'limi itning bayrami.

Maqol

Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. OL Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish — uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

Odamlar dod ovozig'a o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'- dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi: ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, to- vuqlar qoqoqlaydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi,

Qobil boboning qo'shnisi — burunsiz ellikboshi kir- di. U og'ilga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi; negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi, so'ngra Qobil boboni chaqirdi va pang to- vush bilan dedi:

— Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!

Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir urn id bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyoda sevintirdi.

2—1 I 16

n

Choi yig'lab yubordi.

—Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi...

Odamlar, o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qay- si bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslasha-bahslasha tarqaldi. G'ovur bosildi. Qobil boboning kam- piri yig'idan to'xtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rdi. Qobil bobo, qo'l qovushtirib uning ketidan yurar va yig'lar edi.

—Yig'lama, yig'lama, deyman! Ho'kizing oqposh- sho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa topiladi.

Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi — go'yo u ko'chaga chiqsa bas — ho'kiz topiladi. Bu "xudo yallaqag'ur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochgan- mi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylikyemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Beiganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas.

Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin, baqbaqasini osiltirib kuldi.

— Ha, sigir yo'qoldimi?

—Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

—Ho'kizmi?.. Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? TavbaL

— Bor-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

—Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho'kiz edi?

—Ola ho'kiz...

—Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?

—Qo'sh mahali...

—Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?

—Bisotimda hech narsa yo'q...

— O'zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

— Qidirtirsakmikin-a? — dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib, — suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga "Ma, ho'kizing"ni deganday bo'lib ketdi.

— Kam bo'lmang, — dedi pulni uzatib, — yana xizimatingizdaman.

— Men beto'xtov pristavga xabar beraman. O'zi chaqirtiradi.

Bir hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir "duo- ning zo'ri bilan qulf ochadigan" azayimxonga obdas- tagardon qildirgani qatnab yarim qop jiyda, uch yelpish tavoq jo'xori, ikkikalavaip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo'ldi:

— Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi?! Axir, bo- rilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbob- ning izzati bo'ladi!

Qobil bobo yor-do'stlari bilan kengashdi — pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bilan til-mochdan nari o'tib bo'lmadi. Tilmocho tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishini va'da qildi. Cholning butun bo'g'inlari bo'shashib ketdi, keyin tuloqishdi, ammo go'rdi bir narsa deya oladimi: "O'ynashmag'il arbob bilan — seni urar har bob bilan". "Yaxshilab tushuntirilgan" pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pulni olganidan keyin, Qobil boboning baxtiga, "beto'xtov hokimga xabar beraman" demasdan, "amingabor", deb qo'ya qoldi. Amin "ellik-boshiga borilsin", dedi.

—Gumoningizni ayting bo'lmasa! — dedi ellikboshi tajang bo'lib, — kim olganini men bilmasam, avliyo bo'lmasam! Olgan odam allaqachon so'yib saranjom-ladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz ko'nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ldi, xudo biladi, kovush bo'lib bozorga chiqdimi...

—Endi bizga juda qiyin boldi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa... — dedi chol yerga qarab.

—Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho'kiz bo'lsa bir gap bo'lar, xudo ajalga to'zim bersin! Men qaynotamga aytayin, sizga bitta ho'kiz bersin. Bitta ho'kiz odamning xunimi?

Ertasiga ellikboshi Qobil boborii boshlab qaynota- si — Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Pax- tafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin "kichkina- gina" sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi...

BEMOR

(O'tmishdan)

Osmon yiroq, yer qattiq *Maqol*

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi — bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Be- tobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi O' qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hamma- si, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli oq imorat: shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy, omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga¹ ketgan edi. Doktorxona

deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning suvrati solingan 25 so'mlik pul kelar edi.

Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p af- suslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

— Devonaiy Bahovaddinga hech narsa ko'tardingmi? G'avsula'zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga maj-

¹ Sim — hozirgi Farg'ona shahri.

13

bur bo'ldi — har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. U, ertadan-kechgacha oftobshuvoqda, gavronlar ichiga ko'milib savat to'qiydi. To'rt yashar qizchasi qo'lga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo'riydi: ba'zan, qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor ingraydi: har zamon yaqin-yiroq- dan gadoy tovushi eshitaladi: "Hay do'st, shaydullo ba- nomi olio, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo..."

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingragan- da Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi — bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog'ini siladi, so'ngra... o'tirib yig'ladi.

— Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ljobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni! - dedi.

Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keym otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgancha duo qildi.

— Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar bo'lib, oxiri o'sal bo'ldi. "Ko'ngilga armon bo'lmasin" deb "chilyosin" ham qildirishga to'g'ri keldi. Sotiboldi to'qigan savatchalarini ulguiji oladigan boqqoldan yigirma tanga qarz ko'tardi.

"Chilyosin"dan bemor tetik chiqqanday bo'ldi; shu kechasi hatto ko'zini ochib, qizchasini yoniga toitdi va pichirladi:

—Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohi- ga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang.

Yana ko'zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochma- di - saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o'lik yoni- dan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

—Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

ADABIYOT MUALLIMI

O'zining aytishiga ko'ra "nafis adabiyot muallimi" o'rtoq Boqijon Baqoyev og'ilga kirib ta'bi xira bo'ldi: sigirning qulog'iga yana kana tushibdi! Kanadan ham ko'ra sigir uning achchig'ini keltirdi: kanani teray desa qo'ymaydi — boshini siltaydi, pishqiradi.

—Hayvon! Sigir emas, hayvon! — dedi og'ilning eshigini qattiq yopib. — Hayvon!

Xotini Mukarram hovlida samovarga suv quyar edi.

—Hayvon! — dedi Baqoyev, — bu sigirni sotib puli- ga cho'chqa olish kerak!

—Shaharda cho'chqa asrash mumkin emas, — dedi Mukarram samovariga ko'mir solayotib.

—Nima uchun? Taqiq qilinganmi? Kim aytdi? Men aytib edimmi? To'g'ri, mumkin emas... albatta, mumkin emas...

—Uyga kiring, Hamida keldi.

Hamida o'n olti yoshlardagi tirik, quvnoq qiz, poch-chasini ko'rib sevinib ketdi.

—Siz uyda ekansiz, bilsam, daftarimni olib kelar ekanman... esizgina...

O'rtoq Boqijon Baqoyevning ta'bi ochildi — sigir, uning qulog'idagi ko'm-ko'k kana, g'o'qillab tumshug'i bilan ariq yoqalarini buzib yurgan cho'chqa ko'z old- idan ketdi.

—Texnikumdan rabfakka o'tibsana deb eshitdim, rost- mi? — dedi. — Himm... yaxshi qilibsan. Rabfakka o't, deb men

aytib edim shekillik? Himm... Auff, zarda bo'libman... Rabfak yaxshi. Men bir borgan edim. Kan- silyariyaning eshigiga praktikum deb yozib qo'yipti. To'g'ri emas. Praktikum, minimum, maksimum bular hammasi lotincha yoki lotinchaga yaqin so'zlar. Men shax- san shunday deb bilaman.

Bir oz jim qolishdi.

—Boqyon aka, — dedi qiz uyalibroq, — bir narsani sizdan so'ramoqchi edim: biz sinfda Chexovning "Uyqu istagi"ni o'qidik, go'dakni o'ldirgan qizni sud qilmoq- chimiz. Da'vogar go'dakning onasi — Rahima bo'ladi, qoralovchi — Sharifjon. Sudyalar ham bo'ladi. Men *qijz*- ni oqlab, butun gunohni uning xo'jayiniga, yosh qizni bu qadar berahm ekspluatatsiya qilgan kishi^a qo'ymoqchiman. Manashu... Shuniyozdim. Shuto'g'rida sizning fikringizni bilmoqchiman. Chexov shunday demo- qchi emasmi?

O'rtoq Baqoyev o'ylab turib, so'radi:

—Nafis adabiyot darsini sizlarga kim beradi? Haki- mov? Ahmoq odam! O'z ustida ishlaymaydi. Savol alo- mati hamma vaqt "mi" dan keyin qo'yiladi desam, kuladi. Gap bunda ham emas...

Mukarram samovar ko'tarib kirdi. Hamida irg'ib turib, samovarni opasini qo'lidan oldi va stolga qo'ydi. U, homi- lador xotinga samovar ko'tartirib, qarab o'tirgan poch- chasidan o'pkalamoqchi edi, biroq uyaldi, indamadi. O'rtoq Boqijon Baqoyev juda chanqab turgan ekan, ust- ma-ust to'rt piyola choy ichdi va terladi.

— Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, — dedi yuzidagi terni artib. — Himm...soqol ham o'sipti,

16

sartarosh bo'lmasa odamlar maymun bo'lib ketar edi. Maymun, juni to'kilib, odam bo'lgan. Bu haqda Engels- ning fikri bor...

— Haligini aytmadingiz, Boqijon aka, — dedi qiz. — Chexov shunday demoqchi emasmi?

O'rtoq Baqoyev yana bir piyola choy so'radi.

—Chexovmi? Himm... buijuaziya reali/mi to'g'risida so'zlaganda eng awal uning ob'ektiga diqqat qilish kerak. Buijuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan ob'ektiv voqelikni anglash lozim bo'ladi. Turgan gap-ki, Chexovning ijodi boshdan-oyoq, butun mohiyati bilan ilk buijuaziya realizmi, ya'ni... himm... Mukarram, tovuqqa moyak qo'ydingmi? Qo'yish kerak, bo'lmasa daydi bo'lib ketadi... Tavba, tovuqdan ahmoq jonivor yo'q — moyak qo'ysang tug'adi? Xo'roz nima uchun saharda qichqiradi? Ajoyib psixologiya! Biologiya o'qiysizlarmi?

Hamida biyologiyadan nimalar o'qiganini, bu o'qish yilida yana nimalar o'tilajagini so'zlab berdi va o'zining oqlash nutqida fiziologik asoslar ham ko'rsatish niyati bor ekanini aytib, yana so'zni Chexov ustiga burdi.

—Himm... — dedi Baqoyev, — Chexov to'g'risida o'zimning fikrim bor. Boshqalar nima desa desin, har holdauning dunyoga qarashida... Uning dunyoga qarashi Pushkin va Lermontovlarning dunyoga qarashi dan farq qiladi. Bir davr,- bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari bo'lishlariga qaramasdan, mutlaqo farq qiladi!

—Chexov Pushkin bilan bir davrda yashagan ernas-ku, — dedi Mukarram, — bizning kutubxonada uning Maksim Gorkiy bilan oldirgan surati bor. Chexov 1904 yilda o'lgan bo'lsa kerak.

O'rtoq Baqoyev bir oz o'ng'aysizlandi.

—Sizlar qaysi Chexov to'g'risida gapirayotibsizlar? Choydan quy!.. Bu Chexov haqidami? To'g'ri, bu 1904-yilning birinchi yarmidami, ikkinchi yarmidami o'lgan... Boshqaro'molchaber, bundan piyoz hidi kelayotipti... Men ana u Chexov, ilk buijuaziya realizmining namoyandasi bo'lgan Chexov haqida so'zlayotibman.

— "Uyqu istagi" qaysi Chexovniki? — dedi Hamida.

— Hech shubhasiz bu Chexovniki. Bu narsa birinchi marta "Sovremennik" jurnalida bosilgan.

Shundan keyin o'rtoq Boqijon Baqoyev uzundan- uzoq so'zlab ketdi. Uning nima to'g'rida so'zlayotganini Hamida bilmas edi. Detirding degan allaqanday mash- hur tanqidchi

Shelling degan yozuvchiga "sen dastyorga zor bo'lguncha o'g'ling dastyor bo'ladi" deb xat yozgan; Marks Dobrolyubovni Mering bilan bir qatarga qo'ygan; Stending degan allaqanday bir dramaturg o'lar chog'ida Demping degan bir tanqidchiga: "Agar butun jonivor- larni xudo yaratgan bo'lsa, men uning zavqiga qoyil emasman, echkiemar ham jonivor bo'ldimi?" degan... — Hamidaning boshi og'irlashib ketdi: ikki marta sekin, og'zini ochmasdan esnadi.

Hamida mezbonlar bilan xayrlashib ko'chaga chiqqanda qorong'i tushgan edi: "Uyqu istagi" to'g'risida poch- chasidan hech qanday fikr ololmadi. Uning so'zlaridan nima olgani haqida o'ziga hisob berar ekan, g'uvullab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo'q edi: prak- tikum, minimum, maksimum; Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping...

AYB KIMDA

Hamroyev kechki ovqatdan keyin birpas cho'zil- moqchi bo'lgan edi, to'g'ri kelmadi; narigi uy to'pa- lon — bolalar bir-birini yostiq bilan urib o'ynayotibdi; soat sakkiz yarimda majlisga borish ham kerak. Kecha Hamdam ota-onalar majlisi bo'lishi to'g'risida maktab- idan qog'oz olib kelgan.

Hamroyev hech qachon majlisga borgan emas, ammo fursati bo'lganda bir tayyorlanib bormoqchi va bola tarbiyalashni bilmagan yoki bu ishga sovuq qaragan o'qituvchilarni uyaltirmoqchi edi. Bu niyat uning xotini Sobiraxonga juda ma'qul bo'ldi.

—Gapiring, izza qiling! Bolalar maktabda o'qib qayta bevosh bo'lib ketyapti. Siz uyda yo'q vaqtlarda Ham- damingizning dastidan menga kun yo'q. Ilgarilar urib yengar edim, endi uray desam qochib tomga chiqib ketadi, tomda turib menga tilini ko'rsatadi.

Hamroyev qo'yin daftariga nimalarnidir yozdi.

—Xo'sh, tag'in nimalar qiladi?

—Tag'in... ursam, "baribir og'rimaydi" deb xir-xir kuladi... Ha, aytgancha, bir yildan beri biron marta "aya" deganini eshitganim yo'q, hamisha "Turondot" deydi.

Hamroyev kulib yubordi. Bu laqabni Sobiraxonga o'tgan yili may bayramida birovnikiga mehmon bo'lib borishganida o'zi qo'ygan va shu bilan hammani kul- dirgan edi.

— "Turondot" deydimi-a? Lekin buni majlisda ga- pirib bo'lmaydi, chunki... lekin bir tomondan gapirilsa ham bo'ladi, bola degan kattalarning gapini gapirmas- ligi kerak.

— Albatta! Maktabda shunaqa narsalarni o'igatmasa ni- mani o'rgatadi? Quruq ilm bilan bola bola Wo'lar ekanmi?

Hamroyev Sobiraxonning shikoyatlarini, gazetalarda o'qigan, odamlardan eshitgan tarbiyaga doir gaplarni yozib qo'yin daftarini to'ldirdi, keyin bularning ham- masidan xulosa chiqardi:

— Men biron qog'ozga o'qimasdan qo'l qo'ysam, sen biron ko'ylakning yoqasini qiyshiq qadab qo'ysang, ishga sovuqqonlik bilan qaraganimiz uchun javobgar bo'lamiz, nima uchun bola tarbiyasiga sovuqqonlik bilan qaragan o'qituvchiga qonun yo'q, qani, chaqir bu yoqqa Hamdamni!

Narigi uydan, uvadasi chiqib ketgan yostiqni ko' tarib, Hamdam chiqdi.

— O'tir, bu yoqqa! Xo'sh, sen nima uchun ko' cha bolalariga o'xshab axloqsizlik qilasan!

Hamdam yostiqni kursiga qo'yib ustiga o'tirdi va onasiga qaradi.

— Nima qildim?

— Men so'rayotibman, menga qara! Nima qilganingm bilmaysanmi? Nima uchun oying urganda... xayr, bu ham mayli. Nima uchun oyingni "aya" demay... yo'q, nima uchun tomda turib, ayangga... umuman, tomlarda yurar emishsan, yer ko'tarmaydimi? Maktabda senga shuni ta'lim beradimi? Qani daftarlaring?

Hamdam ayasiga qaradi.

— Qachon men tomda yuribman?

— Yo'q, tomni qo'y, menga daftarlaringni ko'rsat! Bu yil o'qish boshlangandan beri nechta "a'lo¹" baho olding?

—Bitta ham... yomonbaho olganimyo'q. Mana...
Hamroyev daftarlarini varaqlay boshladi. -Xo'p, hozir ko'ramiz... "yaxshi!", "o'rta"...,

"o'rta"... Qani "a'lo"? Ruschadan nima uchun "yaxshi"?

—A'lo o'qisam ham o'qituvchimiz "yaxshi" qo'yadi, "a'lo"dan "yaxshi" yaxshi deydi.

— Ha-ha! Hali siz yolg'on gapirishni ham bilasizmi? Qani, beriroq kel, ko'zinga qara! "Yaxshi" yaxshi deydimi?

Hamdam yolg'on gapirishning bunday oqibatim um- rida birinchi ko'rishi edi, yig'lab yubordi.

—Menga qara, deyman! Kim o'rgatdi senga yolg'on gapirishni? Qaysi domlang? Sobiraxon aralashdi:

— Qo'ying endi, minba'd yolg'on gapirmaydi. Voy, tavba, ruschadan nega "yaxshi", baloday gapiradi shekilli-ku!

Hamroyev Hamdamning qulog'idan cho'zib, o ziga qaratdi.

— Tag'in yolg'on gapirasanmi? Bundan keyin yolg'on gapiradigan bo'lsang, bilib qo'y, men oyingga o'xshab og'rimaydigan qilib urmayman-a!.. Shu yolg'on gapiygan keyin ruschadan "yaxshi" olganingga ham ishonmayman. Qani, xo'sh masalan, choynakning qopqog'ini ruscha nima deydi? Samovarning jo'mragini nima deydi?

Hamdam ikkovini ham bilmadi va yig'laganicha narigi uyga kirib ketdi. Hamroyev qo'yin daftarini olib nimalaridir o'chirdi, yana nimalaridir yozdi.

— Yo'q, — dedi daftarini cho'ntagiga solib, — bu ishga jiddiy qarash kerak. Shunday bo'lgandan keyin majlisga jiddiy tayyorlik ko'rib borilmasa bo'lmaydi. Tarbiyaga doir kitob ko'p.

— Soat sakkiz bo'ldi, — dedi Sobiraxon.

Hamroyev o'ylanib qoldi: borsa albatta gapirishi kerak, gapirmaydigan bo'lsa borishning keragi yo'q. So'zga chiqqanda gapni nimadan boshlaydi, nima to'g'rida gapiradi va qanday xulosa chiqaradi.

—Yo'q, bu xilda borishdan foyda yo'q. Turondot, — dedi, - bu safarcha siz boring. Men yanagi safar jiddiy tayyorlik ko'rib boraman.

—Qo'ysangiz-chi! Umrimda bormagan joyimga qanaqa qilib boraman. Mening borishimdan nima foyda?

—Foyda bo'lmasa ziyon ham yo'q-ku!

Er-xotin foyda-ziyon to'g'risida tortishib soatni sakkiz yarim qilishdi.

Hamdam chiqdi.

—Nima qilib o'tiribsizlar? Direktor juda tayinlagan edi, xatni topshirmagandirsan deb ertaga meni urishadi.

—Oying bormaydi, borishidan foyda ham yo'q, men yanagi safar boraman.

—Mudir so'rasa shunaqa deymanmi?

—Nega? Kap-katta bo'lib shunga ham vaj topolmay-sanmi? Dadam ishdan kech keldi, oyimbetob yotipdi

deSⁱⁿ!

tt

Hamdam dadasiga qaraganicha uzoq tunb qoldi. U, ertaga xuddi shunday deydi.

O'JAR

Qutbiddinovga ovchi oshnasi ikkita tustovuq in'om qildi. Tustovuqlar tozalanib, tuzlanayotganda Qutbid- dinovning fe'li aynidi ya'ni bironta shinavanda ulfat bilan birpas dilkashlik qilg'usi keldi. Uning qo'shnisi Zarga- rov yaqin bir oy bo'ladi, chorakam bir litr xushbo'y vinoni dumba-jigar bilan ichkani asrab yurar edi, semiz tustovuqning daragini eshitib, "Xayr, qo'y so'ysak yana vino topilar", dedi.

Bu ikki ulfat ahyonda mana shunday dilakashlik qilganlarida suhbat boshdan-oyoq ikki mavzudan chetga chiqmas edi: biri - shu ketishda shaharimiz yana ellik yildan keyin qanday bo'lar ekan: ikkinchisi - so'ngi vaqtlarda fan kishilarni yoshartirish to'g'risida nega madamay qo'ydi?

Qutbiddinovning o'g'li Suyar ovqatdan keym o'quvchilar saroyiga ketgan edi, soat oltidan o'tib bo-rayotir - daragi bo'lmadi. Shu vajdan Qutbiddinov suhbatning boshlanishida jinday tashvishmand bo'lganidanmi, bu safar mavzu shaharning kelajagi, fanning jimib ketgani emas, bola tarbiyasi bo'lib qoldi. Zargarovning ham o'g'li bor. Ikki ota hozirgi tarbiyam ko'p maqtashdi. Zargarov uzun so'zdan xulosa chiqarib, "men yoshligimda shunday tarbiya ko'rgan bo'lsam, hozir yerda turib oyda chorvachilik qilar edim" dedi.

23

—Men ham, — dedi Qutbiddinov, — men ham ko'p hikmatlar ko'rsatar edim. Lekin, birodar... Qani, ichaylik! Auf... Lekin, birodar, har yomonning bir "ammo"si bo'lishi kerak, har yaxshining bir "lekin"i. Hozirgi tarbiya yaxshi. Hech shubhasiz yaxshi! Lekin kamchiligi yo'qmi? Bor, albatta, bor! Masalan, bolalarga shaxmat o'ynatishni olaylik. Bolaning miyasi shunday miyaki, chunonchi... bizning moliya till bilan aytganda, alohida paragraf!

—Oh-oh-oh! Otangizga rahmat! Kamol toping, do'stim! Men ham xuddi mana shuni aytaman deb turgan edim. Shundoq, do'stim, bola deganingizning miyasi... Iye, siz nega oq ichmadingiz?

Fikrlar bir joydan chiqib, ikki tanqidchi ko'p mamnun bo'lishdi. Suhbat yana ham jonlanib ketdi. Hozirgi tarbiyani olib shaxmatga urildi, shaxmatni olib tarbiyaga; ikkovining ham dabdalasi chiqarildi. Qutbiddinov ryumkalarni yana to'ldirdi, vilka bilan iyagini qashlab davom etdi:

—Shaxmatning yana bir zarari shuki, agar g'irrom odam bilan o'ynasangiz asabingiz buzuladi. O'ttiz to'rtinchi yilda Bobojonov bilan o'ynagan edim, g'irromlik qilib shohimni olib qo'ydi. Shohimni ber, men senga bo'lak narsa beray desam, ko'nmedi, cho'ntagiga solib qo'ydi. Jahlim chiqib qolgan ekan, shohsiz o'ynay berdim, baribir qoldirdim. Shundan beri o'ynamaydigan bo'lib ketdim. Nima keragi bor? Xo'sh, ana qoldirdim, nima bo'пти?

—Shuni ayting, poyezddan qoliptimi?

Soat sakkizdan o'tganda Suyar keldi. U, eshikdan juda hovliqib kirgan edi, bularni ko'rib shashti qaytdi; sekin ichkarigi uyga kirib ketayotganida Zargarov ko'rib qoldi.

—E, e, yigitcha! Qani, buyoqqa keling-chi! Ho', barakalla, mulla Suyar! Otasini suyarmi, onasini su- yarmi, a? Yo ikkalalarini ham suyarmi?

Qutbiddinovning otalik mehri jo'sh urib ketdi, Su- yarning boshidan, yuzidan o'pdi, quchoqladi.

—Albatta, otasini suyarda-a, o'g'lim? Bizning o'g'il ko'p yaxshi-da: birov bilan urishmaydi, papiros chek- maydi, onasidan otasini yaxshi ko'radi, shaxmat o'ynamaydi...

Suyar o'zining quvonchini tantana bilan e'lon qildi:

—Bugun instruktorimizni qoldirdim, dada!

—E, ana endi! Ko'p bema'ni ish qilibsiz-da, o'g'lim! Shaxmat o'ynamagin demabmidim? Qara, burningdan suv oqyapti, miyang suyulibdi! — Suyar bo'shashib ketdi.

—Shaxmat o'ynagandan emas, — dedi burnini ar- tib, — kecha o'zingiz ariqdan ko'zoynagingizni izlatdin- giz...

Qutbiddinov labini burdi.

—Ko'zoynak izlasa burundan suv oqar emishmi? Ming la'nat! Bor, uyga kir, darsingga qara!

Suyar ta'bi xira bo'lib, kirib ketdi. Qutbiddinov o'g'lining noqobilligidan, andishasizligidan qattiq xafa bo'ldi: nahot otasi shaxmat o'ynamagin degan bo'lsa- yu, o'ynasa;

o'ynaganini yana, ayniqsa mehmonning oldida bu qadar tantana bilan e'lon qilsa. Zargarov ko'p bolalar shunaqa ekanligi va Suyar eslik bola bo'lgani uchun bu xildagi qusurlarini yo'qotish qiyin emasligini aytib, ranjigan otaning ko'nglini ko'targan bo'ldi.

—Mening o'g'lim-chi, bundan ham battar. Men unga tog' injeneri bo'lgin desam, "yo'q, dada, bilmaysiz, men uchuvchi bo'laman", deydi. Ha-ha-ha... voy, it- vachcha-yey, men bilmas emishman!

Ikki tanqidchi bolalarning otalarga gap qaytarishlari- ni, otalarning so'zlarini ba'zan yerda qoldirishlarini hozirgi tarbiyada bo'lgan eng katta kamchilikning nati- jasi hisoblashdi va buni har kuni, har soatda ko'rib tur- ganlari holda bunga qarshi jamoat fikrini qo'zg'aguday bir ish qilolmaganlari uchun o'zlarini ham ayblashdi.

- Men shu to'g'rida gazetaga bir maqola yozsammi deb ham o'ylagan edim, - dedi Zargarov, - lekin kelishtirilmasman deb qunt qilmadim. Chala-chulpa yozib birovning oldiga "shu to'g'rimi?" deb borgam nomus qilaman. Rostini aytsam, ellik oltiga kirib ham birovdan aql o'rganishni o'zimga ep ko'rmayman. Endi, men sizga aytsam, biz birovga aql o'rgatsak tuzuk. Nima dedingiz?

- Albatta. Lekin men ham maqola yozishga yo'qman, birodar. Endi biz-ku, o'tdik, bolalarimiz ham bizday bo'lmasin deng. Buning uchun bolalarga har xil adabi- yotlardan o'qitish kerak. Bu to'g'rida ham hozirgi tar- biya o'choqlarimizning beparvoligi bor. Chunonchi, men u kuni o'g'lingizni imtihon qilib ko'rdim. Mazasi yo'q! Hatto Saltikov bilan Shchedrin, degan mashhur yo- zuvchilarni bir-biridan farq qilolmaydi, ikkovi bitta odam deydi: Kula-kula o'libman. Sizga aytaman deb esimdan chiqibdi.

Zargarov "o'g'lim a'lochi" deb hech kimga so'z bermas edi. Qutbiddinovning bu kulgisi uni tamom o'ldirdi.

- Rosti bilan shunday dedimi? Adabiyotdan ham a'lo baho olgan edi-ku.

—Adabiyot muallimi oshnangizdir.

— Be, Saltikov bilan kim dedingiz hali, Shchedrin- mi? Shu'ni bilmasa men qulog'ini tagi bilan sug'urib olaman. Qutbiddinov hamon kular edi.

—Bilmaydi, bahazur sug'urib ola bering, azbaroyi xudo, ikkovi bir odam deydi.

Qutbiddinovning meyordan ortiq kulgisi Zargarov- ning g'ashini keltirdi. Nima bo'lib uning og'zidan "men- ing o'g'lim bilmasa, sening o'g'ling ham bilmaydi" de- gan mazmunda so'z chiqib ketdi. Qutbiddinov ham o'zinijig o'g'liga ishonganligi uchun, Zargarovning bu bo'htoniga darrov, issig'ida zarba bergisi keldi.

—Hozir, hozir, — dedi, — Suyar! Ho, Suyar! Bu yoqqa chiq, o'g'lim! E, yotganmiding? Mayli, bu yo- qqa o'tir. Bizga bir narsani hal qilib ber: Saltikov katta yozuvchimi, Shchedrin katta yozuvchimi?

Suyar goh otasiga, goh Zargarovga qarar va hayron edi.

— Yo'q, siz savolni noto'g'ri qo'ydingiz, dedi Zargarov, — Bunday: Saltikov ilgari o'lganmi, Shchedrin?

—Ikkovi bitta odam-ku! — dedi Suyar, nima gap eka- nini bilolmay.

Zargarov qiyqirib kuldi, chapak chaldi va bunga ham qanoat qilmay o'rnidan turib o'yinga tushdi.

Qutbiddinov do'q urdi:

—Saltikov bilan Shchedrin-a? Kim aytdi senga?

—O'zim bilaman, kitobda bor.

—Kitobda bor? Shaxmatni ko'proq o'yna, itvach- cha!

Qutbiddinov bola bechorani ko'p urishdi. Zargarov Qutbiddinovni o'larday kalaka qilib toza alamini oldi, buning ham og'irligi Suyaga tushdi. Suyar yig'lab yubor- di.

—Undoq demagin, o'g'lim, — dedi Zargarov bir- pas jimlikda'n keyin, — dadang bir narsa degandan ke-

yin darrov "xo'p, bilmabman" deyishga o'rgan. Yaxshi emas.
—Noto'g'ri aytsalar-chi?

Ikki tanqidchi yalt etib bir-biriga qaradi va bu qarashda ikkovining ham ko'nglidan bir gap o'tdi: "Bola ham shunday o'jar bo'ladimi?" Suyar ichkariga kirib ketdi. Qutbiddinov ertagayoq Suyarning maktabiga borib katta g'alva ko'tarmoqchi bo'ldi. Zargarov maktabdan ham ko'ra o'quvchilar saroyiga borishini ma'qul ko'rdi. An- chadan keyin Suyar kattakon bir kitob ko'tarib chiq- di:

—Mana, — dedi portretni ko'rsatib, — mana, Sal- tikov-Shchedrin!

Qutbiddinov "bu o'jar bola hamon o'zinikini ma'qul qilmoqchi" deb juda g'azablandi, ammo mehmonning oldida o'zini tiydi. Zargarov portretning ostidagi yozuv- ni o'qib, xuddi qanotli tuya ko'rganday ajablandi va ki- tobni sekin Qutbiddinovning oldiga surdi. Qutbiddinov portret va uning ostidagi yozuvga uzoq tikildi, so'ngra, ko'zoynagini sekin qulog'idan bo'shatar ekan:

—Him... — dedi, — Saltikov-Shchedrin! Ko'rdin- gizmi, o'sha vaqtdagi yozuvchilar ham soqol qo'ygan ekan...

Jimlik cho'kdi. Suyar indamay ichkariga kirib ketdi. Shu yerda hikoya tamom, chunki uning mantiqiy davomi g'alaba qozongan Suyarning bu ikki tanqidchidan o'ch olishi bo'lar edi. Suyar buni lozim topmadi.

KAMPIRLAR SIM QOQDI

—Turing, Nazirbuvi! Turing, To'xtabuvinikiga chiqamiz!

Nazirbuvi sandalning chetida, derazadan tushib tur- gan erta bahor oftobiga sho'rvada pishgan olmadek yuzi- ni tovlab, to'ygan qo'zichoqday uxlab yotar edi; bu tovush qulog'iga kirib, xuddi pashsha qo'riganday, bir lunjini qimirlatdi; ko'zini ochmoqchi bo'lgan edi, faqat bittasi ochildi.

—A? Nima? - dedi.

—To'xtabuvinikiga chiqamiz. Rais kelibdi.

—Rais?

Nazirbuvi darrov o'rnidan turdi, doka ro'molini qayta bog'lab, Shahodatbuvi bilan birga chiqdi.

To'xtabuvining uyida Roziyabuvi, Ortiqjonlar o'tirar, rais bularga urushning borishi to'g'risida so'zlar edi; kimningdir savoliga javob berib:

—Endi nemisning poshshosi daryo tagiga uy solib kirib ketganligi masalasiga kelganimizda, — dedi, — men buni gazetada o'qiganim yo'q. Agar Gitler shundoq qilgan bo'lsa, qizil askarlarimiz orasida suvchi bolalar ham ko'p, biron tasi kirib giribonidan bo'g'ib chiqadi... Mana, Nazira xola ham, Shahodat xola ham kelishdi. Yaxshi bo'ldi. O'zim ham sizlarni yig'ib ikki og'iz gaplashmoq-i-hi edim. Gapimshuki, kolxozimizdapaxtaishigayaray-

digan odamlar qanchaligi o'zlaringga ma'lum. Shunday cho't urib qarasam, paxta ishiga yaraydigan har bir kol-xozchining har bir ish soati bir kilogramm paxta ekan. Shundoq bo'lgandan keyin odamlarni iloji boricha boshqa ishlardan bo'shatib, paxtaga solishimiz kerak bo'ladi. O'shanaqa ishlardan bittasi pilla-qurt. Men beshovla-ring qurt tutinglar, beshta odam bo'shasin demoqchi emasman. Hech undoq emas. Shundoq qilinglarki, paxta ishiga yaraydigan odam biron soat ham sizlarning qo'llaringdan keladigan ishga band bo'lmasin. Agar siz-lar mana shu yo'l bilan butun bir mavsumda o'n meh-nat kunini pilladan yulib paxtaga bergani yordam qilsal-aring ham harna! Men sizlar bilan majlis qilib, mana shu masalani o'rtaga tashlamoqchi edim. Mana, majlis ochiq. Kim gapiradi?

Hech kimdan sado chiqmadi. Hamma nechukdir, o'ng'aysizlanar, qimtinar, yerga qarar edi.

—Xo'sh, bo'lmadimi? — dedi rais.

Kampirlar bir-biriga qarashdi va hamma birdan:

—Nega, nega bo'lmas ekan! — dedi.

—Bo'lsa nega indamaysizlar? Qani, To'xta xola, gapiring!

To'xta xola ro'molining uchi bilan og'zini yopib, bo'zargan holda awal o'rtoqlariga, keyin raisga qaradi.

—Endi, o'g'lim, dabduristan majlis deding... asli shu gapni awal o'z ora jo'n gaplashib, pishiqtirib olsagu keyin majlisga solsang bo'lar edi.

To'xtabuvi hammaning ko'nglidagi gapni aytdi. Rais bu suhbatni majlis deb atash bilan kampirlarni qiynab qo'yganligini darrov fahmladi-da, kulib, xatosini tuzatdi:

—To'g'ri, awal jo'n gaplashib olaylik. Xo'b, majlis yopiq. Gapni bir joyga qo'yganimizdan keyin ochamiz.

Majlis yopiq e'lon qilingandan keyin Roziyabuvi o'zidan-o'zi gap boshladi:

—Qurt tutishga bizning qo'limizdan keladigan ish ko'p. Aytsangiz-aytmasangiz o'shanaqa ishlaiga qarashish bizdan lozim. Men yana bir narsani o'ylab qoldim: besh kishi ekanmiz, beshovimiz bir quti urug' olsak nainki eplab boqolmasak?

Boshqalar bir qutini bahuzur eplash mumkin ekan- nini aytib:

—Qurt ishida ko'zimiz pishgan, qayta yaxshiroq boqamiz, og'ir ishlari bo'lsa, bizga qarashadigan yosh- yalang topiladi — deyishdi.

Rais miyig'ida kulib:

—Mayli, — dedi. — Agar bir qutini ermak qilamiz, desalaring o'zlaring bilasizlar. Xo'b, endi shu gap puxta gapmi?

—Puxta gap! — deyishdi.

—Endi majlisni ochsam maylimi? Xo'b, majlis ochiq. Beshovlaringni bir zveno deymiz. Zvenoga boshliq kerak bo'ladi, kimni saylaysizlar?

Munozara va muzokaralardan keyin zvenoga boshliq qilib yetmish bir yashar To'xtabuvi Sarimsoqova say- landi.

Majlis yopildi. Rais ketdi.

Shu kuni kechasi, yotar mahalida, To'xtabuvini va- hima bosdi: bular-ku hammasi va'da berdi, sayladi, ertaga biri "Belim og'riydi", biri "O'g'limdan xat kelmayap- ti, yuragimga qil sig'maydi" deb uyiga kirib yotib olsa, nima bo'ladi?

To'xtabuvi yugurganicha Nazirbuvinikiga chiqdi. Nazirbuvi hali uxlamagan ekan.

—Hoy, Nazirbuvi, shu bo'ladigan ishmi, yo rais- ning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib jo'natdikmi?

—Voy, To'xtabuvi, nega bo'lmas ekan? Majlisga sol- dik-a, majlis uvol emasmi? Men hali boshqa narsani o'ylab o'tiribman; beshta nozanindek kampir bo'lsagu bir quti desak butun tumanga kalaka bo'lmaymizmi? Bizga nimaqipti, negaikki quti tutamiz demadik?

To'xtabuvining yuragi dadil bo'ldi. Nazirbuvining andishasi unga ma'qul tushdi. Ikkovi Shahodatbuviniki- ga chiqishcji. Shahodatbuvi bu gapni eshitib:

- Gap shu ishga qunt qilishda, qunt qiladigan bo'lsak, ikki quti ham biru uch qutisi ham bir, - dedi.

Uchovi Ro'ziyabuvinikiga chiqishdi. Ro'ziyabuvi ko'ngandan keyin, Ortiqjonnikiga borishdi. Ortiqjon o'sha majlisda "Uch quti tutish qo'limizdan keladi" demoq- chi ekan-ku, boshqalardan istihola qilib aytmabdi. Bu- lar uch quti degandan keyin, u ham bir quti qo'shdi.

Shunday qilib uyma-uy yurib qilingan majlisda kam- pirlar zvenosi to'rt quti qurt tutishga qaror qildi va erta- lab kolxoz idorasiga chopar yubordi.

Rais ko'nmasdi: "Hammasi yig'ilganda bitta shafto- hga tishi o'tmaydi-yu, to'rt quti urug' tutar emishmi! Yo'q, kampirlarning tovoniga qolaman", debdi. Chopar ham bu gapni oqizmay-tomizmay kampirlarga yet- qizdi: "Hammalaring yig'ilganda bitta shaftoliga tishla- ring o'tmas emish", dedi.

Bu gap kampirlarga nihoyatda alam qildi, ikki kun- dan keyin rais kelganda uni o'rtaga olib shunday qilish- diki, rais "tegishgan edim, tavba qildim" deb zo'rg'a qutildi va to'rt quti urug'ni o'z qo'li bilan keltirib berdi.

Hademay qurt ko'm-ko'k barg ustida o'rmalab qoldi. Qurt katta bo'lgan sayin kampirlarning havasi, g'ayrati ortar edi. Hech kimning beli ham og'rimadi, yuragiga qil sig'maydigan payti ham bo'lmadi, aksincha, ham- ma sog', dimog'lar chog' edi.

Bir kuni rais kelib qurtni ko'zdan kechirdi-da:

. 32

— Yashasin havaskor kampirlarimiz! — deb qichqirdi.

Eshik yonida ikki qo'lini beliga qo'yib, kerilib turgan To'xtabuvi boshqalarga ko'z qisib:

— Qani o'g'lim, chamangda normamiz to'ladimi, yo'qmi? — dedi.

— Iye, shunchalik qurt boqasizlaru, qancha pilla chiqishini bilmaysizlarmi? Har qutidan kamida oltmish kilogrammdan olasizlar, — dedi.

— Ana xolos, — dedi Ortiqjon, — to'lmas ekan-da!

— Nega, norma qancha o'zi? Qirq besh kilogrammi?

Hamma kulib yubordi.

— Unaqa normangni shaftoliga tishi o'tadigan tamamlarga ber. Bizning normamiz har qutidan yetmish- sakson kilogramm!

Rais tilini tishladi.

Bir necha kundan keyin qurt nishona berdi. Nishona pilla beto'xtov kolxoz idorasiga yuborildi. O'sha kuni kech- ki payt rais yetib keldi va eshikdan kirishi bilanoq:

— Onalar, birinchi terimni olgan kunlaring bitta semiz qo'y sizlarniki, men tumandan so'radim, hali hech qaysi kolxozning qurti nishona bergani yo'q! — dedi.

Kampirlar uchun bu xabar yangilik edi.

— Undoq bo'lsa, sen bizdan bitta qo'y bilan qutil- maysan, — dedi. To'xtabuvi, — birinchi terimni olib top- shirgan kunimiz Toshkentga sim qoqasan, aytasanki... Nima desang

o'zing bilasan. Bugun seshanba, yakshanba kuni birinchi terimni topshiramiz.

Uch kun bo'yi zveno qurtning tepasidan nari ket- madi. Qani endi bu qurt o'lgur tez-tez o'ray qolsa!

Rais har kuni tumanga telefon qilib turdi — yo'q, xotijamlik — tumanda hech kim pilla topshirgani yo'q.

Nihoyat to'rtinchi kuni ertalab zveno har uydan savat-savat pilla olib chiqa boshladi. Rais o'sha kuni, tumanda birinchi bo'lib, yigirma besh kilo pilla topshirdi va kampirlarga bergan va'dasiga muvofiq Toshkentga "sim qoqdi".

Zveno raisning Toshkentga sim qoqqani to'g'risida xabar kutib To'xtabuvining uyida o'tirar edi. Birdan Roziyabuvi yugurganicha kirib keldi:

— Turinglar! Turinglar! O'tirasizlarmi! Radio gapir- di, hammamizning otimizni aytdi. Qizil askar oilalari- dan To'xtabuvi, Nazirbuvi, Ortiqjon... Hammamizni aytdi.

— Nima dedi?

— Bilmayman, chamamda, sim qoqdi dedi.

To'g'ri, rais telefon qilgandan keyin, Toshkent radiosining olg'irlari bu xabarni kechki so'nggi axborotda berishgan edi.

Hamma ko'chaga chiqdi. Ko'chaning u boshida rais kattakon semiz qo'yning quyrug'iga arqon solib sudrab kelmoqda edi.

HIKMATLAR

Hozirgi adabiyotimiz naqadar yaxshi, naqadar katta bo'lmashi^kelajakda yaratiladigan buyuk o'zbek adabiyotining poydevori, faqat poydevon bo lib qoladi.

* * *

Hayot - magnit, o'ziga tortadi, yozuvchi shu magnitni o'ziga yuqtira olsagina kitobxonni o ziga tortadi.

* * *

Chiroyli lof-qofdan xunuk haqiqat yaxshi.

* * *

Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas.

* * *

Yozuvchi... pokiza, chiroyli, burdli, subutli, haqgo'y bolishi kerak.

* * *

Yozuvchi yoshligida yoshligiga rioya talab qilsa talan- tiga shira tushadi, erta qariydi, keyin qariligida qariligiga rioya talab qiladi-yu umumadabiyot gazini ko'rganida qunushadi, inqillaydi... bizning yoshlarimiz toy bo'la turib otning tepkisini ko'taradigan chayir, chaqqon, har qanday katta galadan ham uloqni olib chiqib, xalqning sovriniga sazovor bo'ladigan chavandoz otlar bo'lib yetishyapti.

* * *

Yozuvchini hech qachon hech kim ko'tarmaydi. Yaxshi yozuvchini yaxshi asarlari ko'taradi, yaxshi yozuvchi ko'tarilib ketganini hatto o'zi bilmay qoladi.

Yozuvchi o'z ijodiy ishidan hech qachon qanoat hosil qilmaydi, qanoat qilgan kuni, menimcha, yomon qari-gan laqma cholga aylanadi...

Yozuvchi biron asar yozish uchun qo'lga qalam ol- ganda hammadan burun ko'z oldiga shu narsani o'qiyotgan o'quvchini keltirsin, asarning har bir satri ko'z oldidan o'tganida chehrasida bo'ladigan o'zgarishni ko'rib tursin. Yozuvchi o'zini kattakon, bilimdon, yuk- sak zavq egasi bo'lgan kishi oldida imtihon berayotgan- day sezsин.

Adabiyot - hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi.

Umid bilan qo'lga qalam olgan, el-yurtga yozish-chizishi bilan xizmat qilishni istagan, shu yo 1 bilan ko'proq va yaxshiroq xizmat qila olishiga ko'zi yetgan har bir kishining omoli yaxshi asarlar yaratish bo'ladi.

Bolalar yozuvchisi, shubhasiz, talantli, bilimli, pedagog bo'lishi kerak, lekin bularning ustiga o'zi odamoxun bo'lmasa, qadri bir pul.

Bolalar uchun kitob yozadigan kishi g'oyat usta san'atkor, katta tajribali pedagog, **tilning** zarshunosi bo'lmog'i kerak.

Yozuvchining vazifasi yaxshi asarlar yozish, xalq dilining tajjimoni bo'lish bilangina cheklanmaydi, uning vazifasiga adabiyotni har qanday balo-qazodan qo'riqlash, adabiyotning sergak, jasur posbom bo'lish ham kiradi.

San'at asari chaqmoq, mushak, kamalak singari lah-zani obod qiladigan umri qisqa, mag'zi puch go'zallik emas, balki adabiyotni bezaydigan, umri boqiy va mag'zi to'q go'zallikdir.

O'qishli kitob go'zallikdir, lekin go'zallikda ham go'zallik bor. Qorong'i kechada otilgan mushak ham go'zal, quyoshga qarab xandon tashlab turgan gul ham go'zal. Osmonda sochilib ketgan rang-barang olov va oqish izlar go'zalligi ko'zni qamashtirsa ham puch go'zallik, shuning uchun bebaqodir. Gulning go'zalligi esa to'q go'zallik, chunki uning bag'rida hayot bor, shuning uchun abadiy go'zallikdir. G'uncha guldanda ham go'zalroq, chunki uning bag'rida ikki hayot — o'z hayoti va yana gul hayoti bor.

...

Bir suhbatda birov san'at asarining yaxshi-yomonligi har kimning didi, ta'bi, o'sha topdagi kayfiyatiga bog'liq, deb qoldi. Sirtidan qaralganda, bunga qarshi bir nima deb bo'lmaydiganga o'xshaydi, lekin haqiqatda bu ta'rif san'atning qalbiga xanjar uradi, uning qanotini qayiradi.

Biz bu asarni yomon, ikkinchisini yaxshi, uchinchisini so'z san'atining mo'jizasi deymiz. Shunda hamma- dan burun nimani ko'zda tutamiz? Awal shu savolga javob berish kerak.

Modomiki, kitob keng o'quvchilar ommasini uchun yozilar ekan, bu savolga o'sha omma nuqtai nazaridan qarab javob berish zarur. Omma o'zini maftun qiladigan, rohat bag'ishlaydigan narsani o'qiydi. O'shani yaxshi asar deb biladi. O'quvchi kitobni "madaniyatdan orqada qolmaslik" uchungina emas, zo'r rohatdan mahrum bo'lmaslik uchun o'qisa hisob. Shunday asar yaxshi asar bo'ladi... Asar to'g'risida eng to'g'ri, xolis yozilgan taqriz kutubxonaning daftarida bo'ladi.

Eng yaxshi tomosha bo'lmagan drama, qo'lga olish bilan jozibasiga tortib ketmaydigan adabiy asar yaxshi narsa bo'lmaydi. Agar biron yozuvchi asarning shu tomoniga e'tibor qilgani erinsa yoki erinmagani taqdirda ham udda qilolmasa-yu o'zining ojizligini, mas'uliyatsizligini "mazmun", "olijanob maqsad" iboralarini ostiga berkitsa, san'atni, eng muhim tarbiya qurolini beburd qilgan bo'ladi.

Maqsad naqadar olijanob bo'lmasin, Chexovning tili bilan aytganda, "qurbaqaga shakar sepib berganing bilan baribir yemayman".

Adabiy asar, adabiyot degan shundoq bo'lsin.

Bizda hissiz yozilgan, nuqul aql sotadigan, kitobxonni adabiyotdan bezdiradigan sovuq kitoblar oz emas. Bu xildagi kitoblar kitobxonga bir nima berish o'rniga o'z avtorining sharmandasini chiqaradi: modomiki, yozuvchi voqelikdan ilhom olmagan ekan, modomiki, voqealarning mohiyatini, odamlarning dilini anglamagan ekan, bu hoi uning hayotga loqayd qaraganini, ichki darddan mahrum, befarosat va shapko'r ekanini ko'rsatadi. Yozuvchi kitobni ilhom o'ti bilan

alanga ol- dirmasa, kitobxonning qalbiga o't yoqolmaydi.
Kitob

39

kitobxonning qalbida ezgulukka otashin muhabbat, qabohatga omonsiz nafrat uyg'otmasa, o'quvchini maftun qiladigan fazilatdan mahrum bo'ladi.

Masalan, mana shunday hikoya yozgan yozuvchiga nima ilhom berdi ekan: ongli paxtakor chol o'g'liga g'o'zani sug'orib qo'yishni buyuradi. Ongsiz o'g'il ki- noga ketadi, g'o'zani suv bosadi. Choi o'g'lini o'tqazib qo'yib, agrotexnikadan leksiya o'qiydi. Shu bilan yozuvchi kitobxonga agrotexnikadan ta'lim beradi.

Zaruratsiz, ichki dardsiz, ehtirossiz yozilgan asar o'lik bo'ladi. Bundoq asarga hech qanaqa g'oya, muhim mavzu jon kirgizolmaydi.

Bizningcha, rangsiz, nursiz, haroratsiz yozilgan asarlar hayotni chuqur o'rganmasdan, uning achchiq-chugini tatimasdan, o'sha hayot odamlarining qalbiga qalbni payvand qilmasdan, dardsiz, ehtirossiz, ya'ni ilhomsiz yozilgan asarlardir.

Navoiyning bir hikmatli so'zi bor:

Garchi quyoshdin parvarish olam yuziga om erur,
Sahroda kamqog'u tikan, bo'stonda sarvu gul bitar.

Ya'ni: quyoshning nuri barchaga barobar bo'lsa ham, sahroda tikanu bo'stonda sarvu gul bitadi.

Bu juda chuqur, juda zo'r gap, do'ppini yerga qo'yib, xo'p o'ylab ko'radigan gap.

Bir xil talantga ega bo'lgan ikki odam bir xildagi sharoitda ikki olam bo'lub qolishi mumkin.

Demak, yaxshi shoir bo'lish uchun katta talant, yaxshi sharoitning o'zi kifoya qilmaydi.

Men adabiyotga qadam qo'ygandan beri adabiyotga kirib chiqqan odamlarning soni born sanog'i yo'q. Bu- larning bir qismi yozish-chizishga bo'lgan havasini talant deb o'ylagan, shuning uchun adabiyotga yanglish kirgan odamlardir.

Bularning yana bir qismi adabiyot qalbning bir chekasini emas, hammasini talab qilishini bilmagan, talant kun sayin mehnat bilan jilo berib turilmasa, zang- lab, butkul yaroqsiz holga kelib qoladigan asbob ekanidan bexabar kishilar edi...

Hayotni tashkil qilolmaslik, yashay bilmaslik, tur- mushda intizomsizlik adabiyotimizga katta zarar yetka- zadi.

O'qishlik kitob yozish, uning har sahifasini, har sat- rini kitobxonga manzur qilish, kitobxonni quvontirish, uning ko'nglini topish oson emas. Bunday kitobni yozish uchun yozuvchining mahorati, kitob yozishga havasi, hatto yengib bo'lmaydigan xohishi ham kifoya qilmaydi, bularning ustiga dard, hayot bergan ilhom, kalla va qalbdan boshqa har qanday mayda orzu-havasni, har qanday manfaat-g'arazni quvib chiqaradigan yirik-yuk- sak g'oya mavj uradigan ilhom kerak. Ilhom bilan ma- horat topishgandagina kitob yozuvchining qalbidan qo'shiqday otilib chiqadi, kitobxonning qalbida aks sado yangraydi.

Ilhom deymiz. Yozuvchiga ilhom qachon keladi? Ilhomning o'zi hech qachon kelmaydi. Ilhomni yozuv- chining o'zi qidirib borishi, topishi kerak.

Ilhom deb atalgan parizod, nozanin yorning mako- ni qayerda? Ilhomning makoni xalqning dilida majburiyat

emas, zaruriyat, xohishga aylangan mehnatning shavkati baxtiyor odamning qahqahasida, jabrdiydaning ko'z yoshida, oshiq va ma'shuqalarning ko'zlari va so'zlarida, odamda mehr va g'azab uyg'otadigan hodisa va voqealar- ning mag'zida... Ilhom qidirgan yozuvchi xalqning qal- biga qo'l solishi kerak.

Xalqning qalbiga uzoqdan qo'l solib bo'lmaydi, qo'l solish uchun uning oldiga borish kerak.

His qilish uchun yozuvchiga o'zining shaxsiy kechinmalari bilan bir qatorda mushohada ham yordam beradi. Yozuvchi o'zi boshidan kechirgan yoki kechirishi mumkin bo'lmagan hodisalarni zo'r diqqat bilan mushohada qiladi. Turmushni o'rganish degan so'zning ma'nosi turmushni mushohada qilish demakdir. Eng zo'r yozuvchilar eng zo'r mushohada kuchiga ega bo'lishgan. Odamlarning raftoriga oid eng kichik narsalardan tortib, katta-katta ijtimoiy hodisalargacha zo'r diqqat bilan o'rganishgan. Boshqa kishilarning diqqatini jalb qilma- gan hodisalar, bularning diqqatini jalb qilgan, e'tiborini tortgan.

Mana shuning uchun har bir asarda yozuvchining shaxsiy kechinmalari, tajimai holi unsurlari bo'ladi. Yozuvchi ba'zan biron tipgaasos qilib haqiqatdamavjud odamni ham oladi. Bunday hollardao'shamavjud odam tipmng prototipi bo'ladi. Yozuvchi prototipning o'zigaginaxos sifatlarini, xislatlarini tashlab, tip uchun xarakteri bo'lgan boshqa sifatlar, xislatlar qo shadi. Shunday bo'ladiki, prototip tipning o'zi ekanim bilmaydi.

Odatda mushohada faqat kerak bo'lganda, biron asar yozish uchun zarur bo'lib qolganda qilinmaydi.

Masalan, birovning oyog'ini tramvay bosdi Ehtimol mening qahramonlarimdan, personajlarimdan hech kimning oyog'ini tramvay bosmas. Lekin oyog mi tramvay bosgan odamning o'sha damdagi holati, harakati, qiyofasi esimda qolishi kerak. Chunki mabodo shunday holat kerak bo'lib qolsa, tramvayga bostirib ko'rgan hech kim rozi bo'lmaydi.

Kishi chuchkiragan vaqtda afti qandoq bo'lishiga hech kim e'tibor qilmaydi. Lekin Chexov shunga e'tibor qilgan ekan. "Chinovnikning o'limi"da qo'l kelipti.

Men "Anor" degan hikoyani yozgammida boshqorong'i xotinning holatini shu kunlarda mushohada qilganim yo'q. Boshqorong'i xotinning holati mening xotira daftarimda bor edi. Buni men bir vaqtlar daftarga shunday qayd qilib qo'ygan ekanman:

"Er xotiniga jannatning ta'rifini qiladi. Xotinning ko'ziga havzi kavsar va unda suzib yurgan baliqdan boshqa hech narsa ko'rinmaydi. Xotin baliqqa boshqorong'i ...

Shunday qilib, yozuvchining xotira daftari - mushohadalar xazinasi, turmush qomusi vujudga keladi.

Bu daftarga faqat mushohadalargina emas, voqealar, manzaralar, fikrlar, so'zlar, iboralar ham yozilishi mumkin. Chexov hatto ismlarni ham yozgan.

Mana shuning uchun yozuvchi yozayotganda, o'ylayotgandagina emas, hammavaqt mehnat qiladi. Shundoq bo'lishi kerak.

* * *

— Hodisa shaklning yaralishiga turtki bo'ladi, hikoya yozib chiqilgandan keyin, boshqa mazmunga kirishi mumkin. Bunday holatda gap yana shundaki, yozuvchi ongidan ma'lum bir hayot hodisasining alomatlari to'planadi,

bu alomatlar obrazda gavdalanish uchun faqat muayyan sababga, muayyan shaxs yoki vaziyat- ning topilishiga qarab qoladi. Bunda yozuvchi tasawurida shakllanib qolgan tipga bunday muayyan shaxs ichki tomondan qanchalik mos kelishining ahamiyati qolmaydi. Hodisaning mohiyatini yozuvchi belgilab olgandan keyin, uni faqat ma'lum shaklga solish qoladi.

* * *